

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**TADBIRKORLIK FAOLIYATI- IQTISODIYOT VA AHOLI FARAVONLIGI
TAYANCHI**

Raximov Shuxratdjon Shukurullayevich,

Kattaqo'rg'on tuman 3 - son kasb hunar maktabi, o'qituvchi, Samarqand vil..

s01993289@gmail.com

**ENTREPRENEURSHIP IS THE BASIS OF THE ECONOMY AND WELL-
BEING OF THE POPULATION**

Raximov Shuxratdjon Shukurullayevich,

Kattakorgan district 3 - number vocational school, teacher, Samarkand

**ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО – ОСНОВА ЭКОНОМИКИ И
БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ**

Рахимов Шухратджон Шукуруллаевич,

Каттакорганский район 3-номер профессионального училища, учитель, с.

Самарканд.

O'zbekistonda erkin raqobatga asoslangan zamonaviy bozor iqtisodiyotini barpo etish bo'yicha muhim islohotlar o'tkazilmoqda. Valyuta kurslarini liberallashtirish, eksport va import tariflariga o'zgartirishlar kiritish, ayrim tovar va xizmatlar narxlarini erkinlashtirish, monopoliyaga qarshi qo'mitani tashkil etilishi bu boradagi asosiy islohotlardan xisoblanadi. Shu va boshqa bir qator islohotlar xususiy sektorni rivojlantirish, qo'shimcha va sifatli ish o'rinlarini yaratish yo'lidagi muhim qadamdir.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish faoliyatida kelib chiqayotgan muammolarni bartaraf etish borasidagi kompleks choralarni amalga oshirishda o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi. Muloqot davomida bir qator tashabbuslar ilgari surilgan bo'lib, bular tadbirkorlikning rivoji va davlatimiz ravnaqida muhim ahamiyatga egadir. Ilgari surilgan taklif va tashabbuslar kichik biznesga yangi imkoniyatlar eshigini ochishga, o'rta biznesni rivojlantirishga hissa qo'shadi, yangi bozorlarga sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirish imkoniyatini oshiradi, yuqori daromadli korxonalarini ko'payishiga ko'mak beradi.

Rivojlangan mamlakatlar misolida ko'radigan bo'lsak, bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, tarmoklararo va xududlararo monopoliyaga barham berish, raqobatni kuchaytirish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, mamlakatlar eksport salohiyatini kengaytirish, qishloq va kichik shaxarlarni rivojlantirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda kichik va hrta biznes sektori qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish bilan aholi bandligi darajasini oshirish, oilalarning iqtisodiy ta'minotini yuksaltirish, mahalliy byudjet tushumlarni ko'paytirish va umuman, iqtisodiyot taraqqiyoti sur'atlarini oshirish maqsadlari belgilab olingan bo'lib, buning uchun mamlakatimizda zarur xuquqiy asoslar yaratildi.

Mamlakatimizda so'nggi olti yil ichida tadbirkorlik faoliyati xuquqlarini himoya qilish sohasida jami 3087 ta huquqiy hujjatlar, shu jumladan, 153 ta qonun qabul qilindi. Ushbu huquqiy xujjatlar asosida tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olishning xabardor qilish tartibi joriy etildi, ularning moliya-xo'jalik faoliyatini faqat soliq idoralari tekshirishi mumkinligi va tadbirkorlarga nisbatan har qanday sanksiyalar sud qaroriga binoan qo'llanilishi, hisobot taqdim etishning barcha shakllari va turlari, tadbirkorlar faoliyatiga asossiz aralashuv va tekshirishlar soni keskin qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10. 2016 yildagi PF-4848 sonli Farmoni 3-bandida «Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum q qilish tarzidagi jinoiy jazo qo'llanilmaydi» deb ko'rsatib o'tilgan. Tadbirkorlar faoliyatidagi tekshiruvlar o'tkazishga moratoriylarni belgilash amaliyoti joriy etildi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida tekshiruvlarni o'tkazishga qonun buzilishlarga yo'l qo'yilishini oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlari belgilangan tartibda o'tkazilgandan so'ng yo'l qo'yilishi belgilanib, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining 16 ta nazorat funksiyalari bekor qilindi.

2023 yil 18 avgustidagi Prezidentimizning tadbirkorlar bilan uchrashuvida 2023 yilning olti oyi mobaynida tekshirishlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40 foizga kamayganligini aytib o'tdi. O'tgan yillardagi ochiq muloqotlardan keyin so'ngi ikki yilda korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik maxsulotlar eksport kilindi va 10 milliard dollarlik maxsulotni o'zimizda ishlab chikarish yo'lga qo'yildi.

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida huquqiy asoslar bilan birga, uning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi ham muhim ahamiyatga ega. Muloqot davomida ma'lum qilindiki, tadbirkor biznes sub'ektlari loyihalarini moliyalashtirishga 10 foiz investisiya kiritisa, qolgan 90 foiz mablag' yangi tashkil etilgan "Biznesni rivojlantirish banki" hamda davlat tomonidan kiritiladi. Bu, tadbirkorlarlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun keng maydon yaratadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligini raqamlardagi ko'rsatgichlarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Tadbirkorlardan 2021 yilda 15 mingdan ortiq, 2022 yilda 12 mingdan ziyod, joriy yilda esa 6 mingta murojaat kelib tushgan. Demak, muammolar echimini topgan sari murojaatlar soni ham kamayib bormoqda. Tadbirkorlarga berilgan yengillik va imtiyozlar natijasida o'tgan so'nggi bir yil davomida kichik tadbirkorlar soni 40 mingtaga ko'paydi va ularning umumiy soni 490 mingtani tashkil qilyapdi. O'rta tadbirkorlar soni esa 2 mingtaga oshib, hozirda ularning soni 10 mingtaga etdi. Yirik korxonalar soni ham o'tgan qisqa davrda 400 taga ko'paydi. Endi ularning

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

umumiy soni 1500 tani tashkil etadi. Tadbirkorlarga berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshgan. Kiritilgan yillik xorijiy sarmoyalar xajmi esa ilk bor 10 milliard dollarga etgan.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat sifatida mamlakatimizda yirik korxonalar soni kamayib, kichik korxonalar soni keskin o'sib bormokda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashib, innovasiyalarni o'zlashtirishda ilg'or xisoblanishadi. Bozor dinamikasi va o'zgarishlariga bu tahlit moslashish tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat kiladi. Bu yerda quyidagi asosiy omillardan birini ta'kidlashimiz lozim bo'ladi-ki, kichik va o'rta biznes sub'ektlarining rivojlanishi yuqori davlat idoralari tomonidan ragbatlantirilib borilsa-da, mahalliy-hududiy boshqaruv idoralari tomonidan ular uchun muayyan shart-sharoitlar yaratilmasa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin kechadi, chunki o'z iqtisodiy tabiatiga ko'ra, kichik va o'rta biznes asosan mahalliy iqtisodiyotning uzviy qismi bo'lib, ana shu xududdagi mavjud shart-sharoitlar zamirida faoliyat ko'rsatishga moslashgan bo'ladi.

Kichik va o'rta biznes sub'ektlari quyidagi omillar orqali mahalliy iqtisodiyotga bog'liqligini ko'rsatib o'tamiz:

-birinchidan, kichik va o'rta biznes sub'ektlari asosan ma'lum bir hududdagi mavjud extiyojlarni hisobga olgan holda, aholi talabidan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarishni tashkil etishadi va iste'molchilar xam bunga javoban o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birinchi galda eng yaqin ishlab chiqaruvchilar bilan munosabat o'rnatishga harakat qilishadi;

-ikkinchidan, korxonalarni tashkil etishda hududdagi mavjud hom-ashyo va tabiiy resurslar zahiralari hisobga olinadi;

uchinchidan, kichik va o'rta biznes sub'ektlari avvalo, mahalliy bozorlardagi o'zlari ishlab chiqarayotgan tovarlarga bo'lgan talab, aholining xarid qobiliyati darajasiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizdagi mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismi qishloq joylarida istiqomat qilishini hisobga oladigan bo'lsak, kichik va o'rta biznesni ushbu hududlarda rivojlantirish ko'zlangan samarani berishini ta'kidlashimiz o'rinli bo'ladi. Qishloq joylarida kichik va o'rta biznesni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish mumkin:

- sut mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan kichik korxonalar tashkil etish;

- meva va sabzavotlarni sifatli saqlab turadigan sovutgichli omborxonalar va ularni qayta ishlaydigan tsexlar barpo etish;

- meva va sabzavotlardan turli xil sharbatlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;

- qandolatchilik mahsulotlari tayyorlash; - tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqish;

- kir yuvish vositalari tayyorlashni yo'lga qo'yish; - uy – ro'zg'or buyumlari tayyorlash; - qurilish materiallari ishlab chiqish;

- kichik qurilish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish;

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Kichik va oʻrta biznesning mamlakatimiz iqtisodiyotida munosib oʻz oʻrnini topishi uchun davlat idoralari bilan birga mutassadi raxbarlar, hamda barcha fuqorolarning unga boʻlgan munosabatini oʻzgartirish zarur boʻladi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat roʻyhatidan oʻtgan jami tadbirkorlik sub'ektlarining 20-25 % i turli sabablarga koʻra oʻz faoliyatini toʻxtatib qoʻyganliklari maʼlum. Aksariyat hollarda bunga, raxbar organlarning byurokratik munosabati, mavjud qaror va farmonlarga amal qilmasliklari, yoki tadbirkorlar iqtisodiy bilimlarining etarlicha emasliklari bois, raqobat kurashiga, bozor talablariga tayyor emasliklari sababchi ekanligini taʼkidlashimiz oʻrinli boʻladi. Shuning uchun tadbirkorlik layoqatiga ega fuqarolarni iqtisodiy bilimlarni egallashlariga qaratilgan chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Statistik maʼlumotlarga koʻra mamlakatimizdagi mexnatga layoqatli aholining 2,5 % igina kichik korxonalarda faoliyat yuritayotganligi va ular tomonidan yalpi ichki maxsulotning 12,6 % i yaratilayotganligi maʼlum qilingan. Bu albatta, past koʻrsatgich. Vaholanki, mamlakatimizda ishlab chiqarish uchun mexnat va xom-ashyo rusurslari etarlicha boʻlib, ulardan samarali foydalanish hisobiga isteʼmol tovarlari bilan ichki bozorni toʻzdirish imkoni mavjud. Shu sababli, mamlakatimiz rahbariyatining bugungi kunda olib borayotgan iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishi aynan ushbu ulugʻvor maqsadlarga qaratilgan va bunda xorijiy sarmoyadorlar ishtirokida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ishonamizki, Prezidentimiz rahnamoligida oʻrta va kichik biznes ravnaqi yoʻlidagi maqsadlarning amalga oshishi orqali axoli turmush darajasining yuksalishi bilan xar bir oilaning baxtli va forovon hayoti taʼminlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Albhirat, Muath Maqbool et al. “A Study on Strategic Entrepreneurship Orientations: Indicators, Differential Pathways, and Multiple Business Sustainability Outcomes.” *International Journal of Sustainable Development and Planning* (2023): n. pag.
2. Tseng, C., & Tseng, C. (2019). Corporate entrepreneurship as a strategic approach for internal innovation performance. *Asia Pacific Journal of Innovation and Entrepreneurship*.
3. Hitt, M.A., Ireland, R.D., Camp, S.M., & Sexton, D.L. (2001). Strategic entrepreneurship: entrepreneurial strategies for wealth creation. *Southern Medical Journal*, 22, 479-491. <https://doi.org/10.1002/SMJ.196>
4. Ireland, R.D., & Webb, J.W. (2007). Strategic entrepreneurship: Creating competitive advantage through streams of innovation. *Business Horizons*, 50, 49-59.
5. Hitt, M.A., Ireland, R.D., Camp, S.M., & Sexton, D.L. (2001). Strategic entrepreneurship: entrepreneurial strategies for wealth creation. *Southern Medical Journal*, 22, 479-491.
6. Ireland, R.D., & Webb, J.W. (2007). Strategic entrepreneurship: Creating competitive advantage through streams of innovation. *Business Horizons*, 50, 49-59.

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

7. <https://temurtuzuklari.uz/oz>
8. <https://president.uz/oz/lists/view/187>
9. Azimov B. F., Rakhimova D. D. The role of research and innovations in the modernization of the regional economy //Conferencea. – 2022. – C. 43-47.
10. Raximova D. ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHİYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – C. 375-385.
11. Azimov B. F. et al. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 888-896.
12. Azimov B. F., Rakhimova D. D. The role of research and innovations in the modernization of the regional economy //Conferencea. – 2022. – C. 43-47.
13. Raximova D. ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHİYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2024. – T. 25. – №. 1. – C. 375-385.
14. Azimov B. F. et al. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 888-896.
15. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 3(2), 1257-1261.
16. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHİYATNING AHAMIYATI.
17. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. Modern Science and Research, 3(1), 933-938.
18. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. Science and Education, 4(7), 476-481.
19. Raximova D., Alimova R. BIZNESDA ESG TAMOYILLARINI QOLLASH-INNOVATSION IQTISODIYOTNING MUHIM YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – C. 362-365.
20. Yuldasheva saida Ne'matovna Rakhimova Dilnoza Davronovna. (2023). CROWDFUNDING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: DEVELOPMENT TRENDS [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10408645>
21. Davronovna, R. D. (2024). Analysis of Factors Affecting the Efficiency of Research and Innovation Activities of Higher Education Institutions. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(1), 9-18.
22. Raximova, D. (2024). ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI ILMIY-TEXNIKAVIY SALOHİYATI VA INNOVATSIYALAR RIVOJLANISHI KORSATKICHLARINI OMILLI TAHLIL QILISH. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(1), 375-385.